



2021- yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida jami **1424,2** mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **103,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda**

2021- yilning 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 593 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **106,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,0 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **107,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,2 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **112,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,9 %**) o'sishidir.



Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.05.2020- yil	01.05.2021- yil	
	Navoiy viloyati	1496	1593	106,5
	Navoiy sh.	411	454	110,5
	Zarafshon sh.	122	129	105,7
	G'azg'on sh.		1	
	<i>tumanlar:</i>			
	Karmana	243	263	108,2
	Konimex	39	35	89,7
	Qiziltepa	214	235	109,8
	Navbahor	179	187	104,5
	Nurota	101	99	98,0
	Tomdi	40	41	102,5
	Uchquduq	53	54	101,9
	Xatirchi	94	95	101,1


**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- may holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (28,5 %), Karmana (16,5 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **228,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **78,9** % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **5,7** punktga kamayib, **17,4** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **61,1** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,8** % kamaygan), Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,3** % i yoki 2020- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **17,0** % ko'paygan), va Navoiy shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,5** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **4,1** % kamaygan) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **67,3 %** i to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-aprel oylari ko'rsatkichiga nisbatan **8,2** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **118,7 %** ni tashkil etgan holda **958,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **15,3 %** ni tashkil etdi yoki **217,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **86,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **226,1** mlrd. so'm hamda nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 198,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **15,9 %** va **84,1 %** ni tashkil etdi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





**2021- yilning yanvar-aprel oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulki		Davlat mulki	
		mlrd. so'm	Ulushi, % da	mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	1 424,2	1 198,1	84,1	226,1	15,9
Navoiy sh.	413,8	305,8	21,5	108,0	7,6
Zarafshon sh.	267,3	177,4	12,5	89,9	6,3
<i>tumanlar:</i>					
Karmana	128,8	100,6	7,1	28,2	2,0
Konimex	17,7	17,7	1,2		
Qiziltepa	264,2	264,2	18,5		
Navbahor	99,9	99,9	7,0		
Nurota	87,5	87,5	6,1		
Tomdi	8,8	8,8	0,6		
Uchquduq	26,6	26,6	1,9		
Xatirchi	109,6	109,6	7,7		

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-aprel oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **52,3 %** i yoki **744,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

52,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **248,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami qurilish ishlaridagi ulushi **17,4 %** ni tashkil etdi.

17,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **958,0** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,3 %** ni tashkil etdi.

67,3 %

Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **217,7** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **15,3 %** ni tashkil etdi.

15,3 %




**2021- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Navoiy viloyati	1 424,2	103,8	916,9
Navoiy sh.	413,8	96,3	242,1
Zarafshon sh.	267,3	88,0	163,2
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	128,8	118,9	100,9
Konimex	17,7	104,9	10,1
Qiziltepa	264,2	122,6	153,1
Navbahor	99,9	116,4	62,3
Nurota	87,5	101,5	51,3
Tomdi	8,8	104,6	4,6
Uchquduq	26,6	114,1	22,9
Xatirchi	109,6	116,2	106,4

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **11,8 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **21,1** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **16,5** punktga ko'payib, **65,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-aprel oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6** punktga ko'payib, **22,5 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **35,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **6,1 %** kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **64,2 %** (**6,1 %** ko'payish) ni tashkil etdi.







Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **10,4 %** kamaydi va **21,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **78,1 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **10,4 %** ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-aprel oylarida**

mlrd. so'm


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslash- tirilgan qurilish ishlari
Navoiy viloyati	1 424,2	968,4	249,2	206,6
Navoiy sh.	413,8	307,2	55,8	50,8
Zarafshon sh.	267,3	172,7	63,1	31,5
<i>tumanlar:</i>				
Karmana	128,8	68,2	41,6	19,0
Konimex	17,7	10,0	4,5	3,2
Qiziltepa	264,2	177,1	27,8	59,3
Navbahor	99,9	67,5	20,2	12,2
Nurota	87,5	63,3	12,4	11,8
Tomdi	8,8	4,3	1,9	2,6
Uchquduq	26,6	14,3	7,0	5,3
Xatirchi	109,6	83,8	14,9	10,9

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-aprel oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xatirchi tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 76,5 % i yoki **83,8** mlrd. so'm), shuningdek, Navoiy shahar (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 74,2 % i yoki **307,2** mlrd. so'm), Nurota tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 72,3 % i yoki **63,3** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Karmana tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 32,3 % i yoki **41,6** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 26,3 % i yoki **7,0** mlrd. so'm), Konimex tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 25,4 % yoki **4,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 29,5 % i yoki **2,6** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 22,4 % i yoki **59,3** mlrd. so'm), Uchquduq tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 19,9 % i yoki **5,3** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'mda



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Navoiy shahri (413,8 mlrd. so'm), Zarafshon shahri (267,3 mlrd. so'm), Qiziltepa (264,2 mlrd. so'm), Karmana (128,8 mlrd. so'm) tumanlarig a to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Tel.: (71) 202-84-46; (79) 223-54-73